

**QORAQALPOG'ISTON
RESPUBLIKASI
VAZIRLAR KENGASHINING
QARORI**



**QARAQALPAQSTAN
RESPUBLIKASI
MINISTRLER KENESININ
QARARI**

2023 - yil 9 - mart

84-13-0-Q/23

Qoraqalpog'iston Respublikasi
Vazirlar Kengashi

Yer maydonini zaxiraga qaytarib olish to'g'risida

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 30-dekabrda "2023-2025 - yillarda O'zbekiston Respublikasining ijtimoiy va ishlab chiqarish infratuzilmasini rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-465-sonli qarori ijrosini ta'minlash maqsadida, Qoraqalpog'iston Respublikasi Xo'jayli tumani hokimligining 2023-yil 3-fevraldagi 465/01-sonli xati va O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligining 2023-yil 24-fevraldagi 01-03/5-87-sonli rozilik xati hamda O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 8-iyundagi "Yer munosabatlarida tenglik va shaffoflikni ta'minlash, yerga bo'lgan huquqlarni ishonchli himoya qilish va ularni bozor aktiviga aylantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PF-6243-sonli Farmoni, "Qoraqalpog'iston Respublikasi Vazirlar Kengashi to'g'risida"gi va "Yer to'g'risida"gi Qoraqalpog'iston Respublikasi Qonunlariga asosan Qoraqalpog'iston Respublikasi Vazirlar Kengashi qaror qiladi:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 30-dekabrda "2023-2025-yillarda O'zbekiston Respublikasining ijtimoiy va ishlab chiqarish infratuzilmasini rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-465-sonli qarori ijro uchun rahbarlikka olinsin.

2. Xo'jayli tumani "Shag'alako'l" OFY hududida joylashgan 4-sonli umumta'lim maktabi hududining 0,20 ga yer maydoni keyinchalik 60 o'rinli davlat maktabgacha ta'lim tashkilotini qurish maqsadida Xo'jayli tumani hokimligi zaxirasiga o'rnatilgan tartibda qaytarib olinsin.

3. Davlat kadastrlari palatasining Qoraqalpog'iston Respublikasi boshqarmasi (U.Jalelov) Xo'jayli tumani hokimligi zaxirasiga yer maydoni qaytarib olinishi munosabati bilan yer hisobotiga tegishli o'zgartirishlar kiritsin hamda ushbu yer maydonida 60 o'rinli davlat maktabgacha ta'lim tashkilotini tashkil etish uchun yer ajratish hujjatlarini tayyorlasin.

4. Qoraqalpog‘iston Respublikasi Davlat soliq boshqarmasi ushbu yer maydoni Xo‘jayli tumani hokimligi zaxirasiga qaytarib olinishini inobatga olib, yerdan foydalanuvchining soliq va boshqada to‘lovlarini belgilangan tartibda ko‘rib chiqish topshirilsin.

5. Ushbu qarorning bajarilishini nazorat qilish Qoraqalpog‘iston Respublikasi Vazirlar Kengashi Raisining o‘rinbosari E.Atashov zimmasiga yuklatilsin.

**Qoraqalpog‘iston
Respublikasi Vazirlar
Kengashi Raisi**



F. Ermanov